

Nutqi to‘liq rivojlanmagan mактабгача yoshдаги bolalarga tengqurlarining munosabati

Gulmira G‘olibjon qizi Nabijanova
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqi to‘liq rivojlanmagan va uning kelib chiqish sabablari, klinik ko‘rinishlari keltirilgan hamda nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarga o‘z tengqurlarining munosabti va bolardagi ushbu kamchilikni bartaraf etish yo‘llari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: nutqi to‘liq rivojlanmaganlik, klinik ko‘rinish, sabablar, logoped mutaxassislar

Peer attitudes towards preschool children with incomplete speech development

Gulmira Golibjon kizi Nabijanova
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: In this article, the causes and clinical manifestations of underdeveloped speech are given, as well as the attitude of peers to children with underdeveloped speech and ways to eliminate this deficiency in children.

Keywords: underdevelopment of speech, clinical presentation, reasons, speech therapists

Kirish

Bola nutqi to‘liq rivojlanmaganligi tushunchasi bolaning nutqi rivojlanishining aniq holatidan kelib chiqadi va o‘zining etiologiyasi bo‘yicha aniq nutq rivojlanmaganligi va uning turli xil ko‘rinishlarigina yagona pedagogik yondashuvlar imkoniyatilari haqidagi ilg‘or nuqtayi nazarlarni asoslaydi.

Nutqda to‘liq rivojlanmaganlik termini qo‘llash, nutq buzilishiga g‘oyat chuqr va individual yondashuvlarni ham ifodalab uni tahlil qilishni pedagog zimmasiga yuklaydi. Bunday yondashuv mutaxassisdan katta umumbiologik va tibbiy malakanı talab qiluvchi, nuqson tuzilishini patogenetik jihatdan tahlil qilishni talab qilmaydi. [2]

Biroq pedagog logoped uchun kim bilan ishlashi, to‘liq rivojlanmaganlikning qay yo‘sinda paydo bo‘lgani, nutq rivojlanishi tempiga qo‘shilib keluvchi nevrologik buzilishlar, genetik belgilar, psixik faoliyat va bola shaxsining xususiyatlari, dori-darmonli davolashning bor yoki yo‘qligi va boshqa omillarning qanday ta’sir etishi

ma'lum ahamiyatga ega. Bular pedagogning shifokor bilan birgalikdagi ishi jarayonidagina aniqlanishi va tahlil qilinishi mumkin. [3]

Bola Nutqida ma'lum bir biologik shart-sharoitlarning mavjudligi va bиринчи navbatda markaziy nerv tizimining tuzilishi va normal rivojlanishida, ishlashida namoyon bo'ladi. Biroq nutq muhim ijtimoiy funksiya hisoblanadi. Shu sababli uning rivojlanishi uchun biologik shart-sharoitlarning o'ziga yetarli emas, u bolaning kattalar bilan muloqotga kirishish jarayonida yuzaga keladi. Bunday vaziyatda bola hissiy jihatdan eng yaqin kishisi, ya'ni onasi bilan muloqoti yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi. Muloqot ehtiyoji bolaning atrofdagi odamlar bilan aloqaga kirishish jarayonida shakllanadi.

Bola nutqning yuzaga kelishi va rivojlanishida muloqotning hal qiluvchi ro'lini gospitalizm tekshiruvlari isbotlaydi. Rag'batlantiruvchi insoniy muhit (oila, bolalar guruhi) dan bolani ajratib qo'yish deprivatsion vaziyat sifatida o'rganiladi. Agar bu vaziyat uzoqroq davom etsa psixik deprivatsiya holati yuzaga keladi.[4]

Nutq rivojlanishiga ayniqsa hissiy deprivaysiya yomon ta'sir ko'rsatadi. Bunda bola tug'ilganidan boshlab uning affektiv ehtiyojlari (suyish, erkalash, yahshi ko'rish) qondirilmaydi. Bunday vaziyatda ko'pincha ota-onalari spirtli ichimliklar ichuvchi, onasi yo'q oilalarda, bola tug'ilishi bilan tarbiyaga sust qaraladigan bolalar uyida tarbiyalanishi oqibatida vujudga keladi.

L.S.Vigotskiy tomonidan bolaning psixik va rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning yetakchi roli haqidagi fikrlar ilgari surilgan. Bunday vaziyatda neyrofiziologik tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish tufayli biz bu fikrlarga qo'shilamiz va fikrlarni tasdiqlashimiz mumkin. Bola miyyasiga qanchalik ko'p va doimiy va xilma-xil axborotlar oqimi kelsa, markaziy nerv tizimining funksional va anatomiq jihatdan yetilishi shunchalik tez sodir bo'ladi.

Nutqi to'liq rivojlanmaganlikning sabablari.

Bolaning ona qornida rivojlanishi, tug'ruq (tug'ruq travmasi, asfiksiya) va hayotining dastlabki yillarida ta'sir ko'rsatuvchi turli xil zararli omillar nutqning to'liq rivojlanmaganligiga olib kelishi mumkin. [5]

Boladagi Nutqiy kamchiliklar tuzilishi, kompensatsiya jarayonlari ko'p holatlarda miyaning zararlanishini qachon ro'y berganligini aniqlash mumkin. Bir butun miya rivojlanishi anomaliyasining xarakteri malum miqdorda jarohatlanish muddatiga bog'liqligi hozirgi kunda isbotlangan. Turli xil zararli omillar (infeksiya, intoksikatsiya va boshqalar) ta'siri ostida bosh miyaning birmuncha og'ir zararlanishi odatda erta embrionogenet davrida yuzaga keladi. U yoki bu zarali omilning ta'siri davrida nerv tizimining qaysi bo'limlari birmuncha jadal rivojlanishiga bog'liq ravishda rivojlanmaganlik ko'proq harakat, sensor, nutqiy yoki intellektual funksiyalarga taaluqli bo'ladi. Homiladorlikning kechishi mobaynida doimiy noqulay shart-sharoitlar natijasida, birmuncha yaqqol ifodalangan alohida miya tuzilmalari bilan

birga bir butun yaxlit miya rivojlanmaganligi ham kuzatiladi. Bu murakkab nuqsonlarning yuzaga kelishiga (masalan oligofreniyaning motor alaliya bilan uyg‘unlashuvi)asos bo‘lib xizmat qiladi.[6]

Miya rivojlanmaganligi yoki zararlanishni keltirib chiqaruvchi sabablar ichida homiladorlik davrida onaning infeksiyalari yoki intoksikatsiyalari, toksikozlar, tug‘ruq tarvmasi, asfiksiya, rezus omil bo‘yicha ona va homila qonining mos kelmasligi, markaziy nerv tizimi kasalliklari (neyroinfeksiyalar) va bola hayotining dastlabki yillarida bosh miya travmalari birmuncha ko‘p uchraydi.

Nutqi to‘liq rivojlanmaganlikning klinik ko‘rinishlari. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarni maxsus tekshirish bu kamchilikning turli xil klinik ko‘rinishlari mavjudligini ko‘rsatadi. Ularni shartli ravishda uch guruhga bo‘lish mumkin .

Birinchi guruhdagi bolalarda faqatgina nutqning to‘liq rivojlanmaganligi belgilarni ko‘rish mumkin . Ularda nerv - psixik faoliyat buzilishlari kuzatilmaydi.

Ikkinchi guruhdagi bolalarda nutqning to‘liq rivojlanmaganligi bir qator nevrologik va psixo - patologik sindromlar bilan birga kechadi.[7]

Uchinchi guruh bolalarda klinik jihatdan motor alaliya kabi belgilanuvchi, birmuncha o‘ziga xos va turg‘un nutq buzilganligi kuzatiladi. Bir qator xorijiy mualliflar terminalogiyasi bo‘yicha nutq patalogiyasining bu shakli "rivojlanish afaziyasi", yoki "tug‘ma afaziya" singari nomlanadi.

Barchamizga ma'lumki maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o‘yin faoliyatidir. Bu faoliyatda bola o‘z tengqurlari bilan o‘zaro muloqotda bo‘lib o‘yin faoliyatida bo‘lishadi. Ayrim holatlarda nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarga o‘z tengqurlari yahshi munosabatda bo‘lmay, bolani kamsitib ustidan kuladilar. Mana shunday holatlarni oldini olish uchun malakali logopedlar tomonidan nutqi rivojlanmagan bolalar bilan ilk yosh davridan korreksion rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar olib borishlari darkor. Hozirgi kunda ham har bir maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida logopedik shtatlar tashkil etilib soha mutaxassislari logopedlar bolalarni ilk yosh davri ya’ni 3 yoshda boshlab logopedik mashg‘ulotlar olib bormoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Y. Ayupova "Logopediya" Toshkent 2007
2. KHURSHIDAKHAN, R., & ZUKHRA, S. (2024). The Essence Of Using Innovative Methods In The Educational Process. American Journal of Advanced Scientific Research, 1(8), 303-307.
3. Sadirdinovna, V. M. (2023). FEATURES OF THE FORMATION OF IMITATION OF SPEECH IN CHILDREN WITH ALALIA SPEECH DEFECTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(12), 1001-1004.

4. KHURSHIDAKHAN, R., & ZUKHRA, S. (2024). The Essence Of Using Innovative Methods In The Educational Process. American Journal of Advanced Scientific Research, 1(8), 303-307.
5. Vokhobova Munira Munojat Pòlatova Azamatovna. Alalia as dysontogenesis of speech development. Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj)
6. Sadirdinovna, Vokhobova Munirakhan. "CORRECTIVE PEDOGOGICAL WORK CARRIED OUT IN STUTTERING CHILDREN." Open Access Repository 9.12 (2023): 372-375.
7. Sadirdinovna, Vokhobova Munirakhan. "features of the formation of imitation of speech in children with alalia speech defects." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.12 (2023): 1001-1004.
8. Sadirdinovna, Voxobova Muniraxon. "Autizm kelib chiqish sabablari va davolash yo'llari." tadqiqotlar. UZ 48.2 (2024): 7-10.
9. SADIRDINOVNA, VOKHOBOVA MUNIRAKHAN. "Ways and methods of speech formation of children with alaliya speech defects." Confrencea 3.03 (2023): 231-235.
10. 11. Sadirdinovna, Vokhobova Munira. "Formation of speech imitation in children with severe degree of motor alalia." Open Access Repository 4.2 (2023): 316-320.
11. Munira, Voxobova, and Mirrahimova Xonzodabegim Sodiqjonovna. "Bolalarda yuvinel revmatoid artrit kasalligining kelib chiqishi hamda uning oldini olish choralar." Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi 15.1 (2024): 33-35.
13. Vaxobova, Muxtabar. "O'smirlarning ota-onalari bilan munosabatlaridagi muammolar." Журнал Педагогики и психологии в современном образовании 4.2 (2024): 53-57
12. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 4(2), 969-972.
13. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. Science and Education, 4(5), 988-992.
14. Karimov, J. J. O. G. L., & Kamalova, A. (2024). Yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. Science and Education, 5(2), 513-519.
15. Камалова, А. (2021). THE IMPORTANCE OF USING GAME TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF EDUCATION. Экономика и социум, (3-2), 12-14.

16. Jo‘Rakabirova, M. X. Q., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta’lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. *Science and Education*, 5(3), 490-494.
17. Azimova, O. A. Q. (2023). Bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarida kasbiy mahorati. *Science and Education*, 4(6), 718-722.
18. Kamolova, A. (2022). The Scientific and Theoretical Foundations of Studying the Sources of Popular Pedagogy in Educating the Younger Generation. *Science and Education" Scientific Journal/Impact Factor*, 3, 590-592